

BITIMLARNING KOLLIZIYON MASALALARI

Jo'rayev Javoxir Meliboy o'g'li - TDYU talabasi

АНОТАТСИЯ

Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqda bitim va kolliziya tushunchalari, Bitimlarga nisbatan qo'llaniladigan huquq masalalari, Shartnoma tuzilayotgan paytda shartnoma uchun qo'llaniladigan huquqni tanlash ma'salasi, Shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquq tartibotning tanlanmamasligining oqibatlari, Bitimlarning xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinishi masalalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Katit so'zlar: bitim, kolliziya, Kollizion muammo, Lex Valentatus, Erk muhtoriyati, xalqaro shartnoma.

КОЛЛИЗИОННЫЕ ВОПРОСЫ ТРАНЗАКЦИЙ

Жўраев Жавохир Мелибой ўгли - Студент ТГЮУ

АННОТАЦИЯ

В данной статье даны сведения о понятиях сделки и коллизии в международном частном праве, о вопросах права, применяемого к сделкам, о выборе права, применяемого к договору на момент заключения договора, о последствиях несоблюдения правопорядка, применяемого к договору, и о регулировании сделок посредством международных договоров.

Ключевые слова: соглашение, коллизия, проблема коллизии, Lex Valentatus, автономия воли, международное соглашение.

Kirish

Hozirgi rivojlanayotgan davrda fuqarolarning jamiyatda bir birlari bilan munosabatga kirishishi va o'zaro aloqalari natijasida ular o'rtasida tur xil bitimlar vujudga kelmoqda. Munosabatlarning kengayishi esa fuqarolarning davlat yurisdiksiyasidan tashqarida bo'lgan shaxslar (chet el fuqarolari va yuridik shaxslar) bilan turli xil munosabatlarga kirishishiga sabab bo'lmoqda. Natijada chet el elementi bilan murakkabalashgan fuqaroviy-huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda.

Bitim va kolliziya tushunchalari

Bevosida bitimlarning kolliziyon masalalariga to'xtalishdan avval "Bitim" va "kolleziya" nima ekanligiga aniqlik kiritib olishimiz muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 101-moddasiga muvofiq bitim "**Bitimlar** deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlar"dir. Ya'ni, bitim

fuqarolarning va yuridik shaxslarning biror bir harakatni amalga oshirish yoki oshirmaslik maqsadida kelishishlari hisoblanadi.

Kolliziya – bu bir xil yoki o‘xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi turli huquqiy aktlar o‘rtasidagi ziddiyat[1]. Xalqaro xususiy huquqda kolliziyon norma – bu vujudga kelgan muammoni qaysi davlat huquqini qo‘llagan holda hal qilishni ko‘rsatuvchi norma hisoblanadi.

Kollizion muammo – “u yoki bu huquqiy munosabatga nisbatan qo‘llash uchun tegishli bo‘lgan huquqni tanlash muammosidan iborat. Kollizion normalar boshqa huquq sohalari normalariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin”[2].

Bitimlarga nisbatan qo‘llaniladigan huquq masalalari.

Turli xil mazmunda tuzilgan bitimlar ustida muammo yuzaga kelganda ushbu muamolarni qaysi davlat huquqini qo‘llash orqali hal qilish masalasi dolzarb masaladir.

Bir davlat fuqarolari tomonidan ushbu davlat yurisdiksiyasi ichida tuzilgan bitimlar uchun ushbu davlat huquqi qo‘llaniladi. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-moddasining 1-qismida “Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o‘zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi” deb belgilanganligi keltirishimiz mumkin.

Asosiy masala shundagi, Chet el elementi bilam murakkablashgan fuqaroviy-huquqiy munosabat vujudga kelganda ushbu munosabat qaysi davlat huquqini qo‘llagan holda tartibga solinishi ushbu maqolamizda asosiy e‘tibor qaratadigan masalamizdir. Ushbu holat amalda kollizion muammo deb ataladi.

Shartnoma tuzilayotgan paytda shartnoma uchun qo‘llaniladigan huquqni tanlash.

Xalqaro xususiy huquq subyektlari shartnomaviy munosabatga kirishayotganlarida ushbu shartnoma uchun qo‘llaniladigan huquqni tanlash huquqiga egadir. Bu prinsip “Lex Valentatus” ya‘ni “Erk muhtoriyati” deb ataladi. Ushbu prinsip orqali shartnoma tomonlarini roziligi ostida tuzilayotgan shartnoma uchun qo‘llaniladigan huquq tanladani. Bunda tomonlar o‘z davlatlarining huquqlarini tanlashga urinadilar. Chunki, keyinchalik ushbu shartnoma ustida nizo kelib chiqqan paytda muammoni o‘z foydalariga hal qilishlari oson bo‘ladi. Bunga sabab esa ularning o‘z huquq tizimlarini qolgan davlat huquqiy timidan yaxshiroq bilishlaridir.

Shartnoma tuzilayotganida shartnomaga qo‘llaniladigan huquq sifatida uchinchi bir davlatning huquqini tanlashlari ham mumkin bo‘lib, bu amalda erk muhtoriyatining yana bir ko‘rinishidan biridir.

Shartnoma tuzilayotgan paytda taraflar shartnomaning qismlariga nisbatan qo'llaniladigan huquq tartibotlarini tanlashlari ham mumkin. Misol uchun, shartnomani amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarga birinchi davlat huquqini, nizolarni hal qilish uchun esa ikkinchi davlat huquqini tanlashlari ham mumkin. Qo'llaniladigan huquq taraflar tomonidan shartnoma tuzilayotganda ham, undan keyin ham istalgan vaqtda tanlanishi mumkin. Shuningdek, taraflar manfaatlaridan kelib chiqib istalgan vaqtda qo'llaniladigan huquq tartibotni o'zgartirishlari mumkin.

Shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquq tartibotning tanlanmamasligining oqibatlarini.

Taraflar bitim uchun qo'llaniladigan huquq tartibotni tanlamagan taqdirlarida shartnoma uchun qo'llaniladigan huquq tartibot ikki tarafning roziligi orqali tanlanishi mumkin. Shuning bilan bir qatorda, xalqaro odatdan davlatlarning qonunchiligiga singdirilgan kollizion normalar ham mavjud bo'lib, ular davlatlarning milliy kollizion normalarida singdirilgan.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida ham shunday kollizion normalar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksining 1158-moddasida "Chet el fuqarolari yoki chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi yoxud chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq ushbu Kodeks, boshqa qonunlar, xalqaro shartnomalar va e'tirof etilgan xalqaro taomillar asosida, shuningdek taraflarning kelishuvi asosida belgilanadi. Taraflarning huquqni tanlashga doir kelishuvi ochiq ifodalangan bo'lishi yoki bevosita shartnoma talablaridan va ishning ko'rib chiqilayotgan barcha holatlaridan kelib chiqishi lozim.

Agar ushbu moddaning [birinchi qismiga](#) muvofiq qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqni aniqlashning imkoni bo'lmasa, chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan eng uzviy bog'langan huquq qo'llanadi" deb belgilanganligi xalqaro odatning milliy qonunchilikka singdirilishidir.

Shuningdek, Qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risida shartnoma taraflarining kelishuvi bo'lmagan taqdirda, bu shartnomaga nisbatan:

- ❖ oldi-sotdi shartnomasida — sotuvchi;
- ❖ hadya shartnomasida — hadya qiluvchi;
- ❖ ijara (mulk ijarasi) shartnomasida — ijaraga beruvchi;
- ❖ mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasida — ssuda beruvchi;
- ❖ pudrat shartnomasida — pudratchi;
- ❖ 'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasida — tashuvchi;
- ❖ transport ekspeditsiyasi shartnomasida — ekspeditor;
- ❖ qarz shartnomasida yoki boshqa kredit shartnomasida — kreditor;
- ❖ topshiriq shartnomasida — ishonchli vakil;
- ❖ vositachilik shartnomasida — vositachi;

- ❖ omonat saqlash shartnomasida — saqlovchi;
- ❖ sugʻurta shartnomasida — sugʻurtalovchi;
- ❖ kafillik shartnomasida — kafil;
- ❖ garov toʻgʻrisidagi shartnomada — garovga qoʻyuvchi;
- ❖ alohida huquqlardan foydalanish toʻgʻrisidagi litsenziya shartnomasida — litsenziar hisoblanuvchi taraf taʻsis etilgan, turar joyga ega boʻlgan yoki asosiy faoliyat joyi boʻlgan mamlakat huquqi qoʻllaniladi[3].

Shuningdek, birgalikdagi faoliyat toʻgʻrisidagi shartnomaga va qurilish pudrati shartnomasiga nisbatan — ana shunday faoliyat amalga oshirilayotgan yoki shartnomada nazarda tutilgan natijalar yaratilayotgan mamlakatning huquqi, kimoshdi savdosida, tanlov boʻyicha yoki birjada tuzilgan shartnomaga nisbatan — kimoshdi savdosi, tanlov oʻtkazilayotgan yoki birja joylashgan mamlakatning huquqi qoʻllaniladi.

Taraflarning erk muxtoriyati prinsipi jahondagi koʻpgina davlatlarning qonunchiligi tomonidan tan olinadi. Lekin taraflar erk muxtoriyati tamoyillarining chegaralari koʻp davlatlarda turlicha belgilab qoʻyilgan. Ayrim davlatlarda bu tamoyil chegaralanmagan, yaʼni taraflar bitim imzolaganlaridan soʻng mazkur hujjatni xohlagan huquq tizimiga boʻysundirishlari mumkin. Rivojlangan davlatlarning huquq tizimiga eʼtibor beriladigan boʻlsa, masalan:

Germaniya huquq tizimi ham taraflar tomonidan imzolangan bitimga qonunchilikni tanlashda erk muxtoriyati prinsipidan kelib chiqadi, lekin taraflar bitimda bunday prinsipni qoʻllashmagan boʻlsa, bitim qaysi davlat uchun muhimroq ahamiyatga ega boʻlsa, oʻsha davlatning qonunchiligi qoʻllaniladi;

Xitoy Xalq Respublikasi ham oʻz qonunchiligida, “agar taraflar bitimda qoʻllanadigan huquqni belgilamagan boʻlsalar, bunday bitim qaysi taraf uchun muhimroq ahamiyatga ega boʻlsa va bitim qaysi mamlakam bilan eng koʻp uzviy bogʻlangan boʻlsa, oʻsha tarafning qonunchiligi qoʻllanilishini belgilaydi”[4].

Bitimlarning xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinishi.

Kollizion muammoni davlatlar “Ikki tomonlama oʻzaro huquqiy yordam togʻrisida”gi shartnomalari orqali ham hal qilishlari mumkin. Bunga misol tariqasida Oʻzbekiston Respublikasi bilan Bolgariya Respublikasi oʻrtasida “Fuqarolik ishlari boʻyicha huquqiy yordam koʻrsatish toʻgʻrisida” Shartnoma va boshqalarni olishimiz mumki. Bunday turdagi shartnomalar ham kelib chiqqan muammoni qaysi davlat huquqi boʻyicha hal qilish uchun yoʻnalish beruvchi kollizion normalar keltirilishi mumkin.

Shuningdek, bitimlarning kollizion masalari davlat ishtirok etayotgan xalqaro shartnomalar orqali ham tartiga solinadi. Bunda asosiy oʻrinni tashqi iqtisodiy bitimlar eggalaydi. Ushbu bitimlar oldi-sotdi, xalqaro tashish va boshqa toifadagilarni oʻz ichiga oladi. Ushbu turdagi bitimlar uchun qoʻllaniladiga xalqaro shartnomlar sirasiga

1980-yilgi tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi, 1983-yilgi tovarlar xalqaro oldi-sotdisida vakillik to'g'risidagi Vena konvensiyasi, 1988-yilgi xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi Ottava konvensiyasi, 1988-yilgi xalqaro faktoring to'g'risidagi Ottava konvensiyasi, 1992-yil 1-iyuldan kuchga kirgan MDHga a'zo davlatlar uchun tovarlar yetkazib berishning umumiy shartlari to'g'risida a'zo davlatlar ishtirokidagi kelishuv, 1955-yil 15-iyunda qabul qilingan va 1986-yil 22-dekabrda o'zgartirilgan ovarlarning xalqaro oldi-sotdisiga qo'llaniladigan huquq to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi va boshqalar kiradi. Xususan, xalqaro shartnomalarning bitimlarning kollizion muomosiga tadbiiq etilishining misoli sifatida 1985-yilda mollarning xalqaro oldi-sotdi shartnomalariga qo'llaniladigan huquq to'g'risidagi konvensiya qoidalari oldi-sotdi shartnomasiga taraflar tomonidan tanlab olingan huquq qo'llanilishini ko'rish mumkin. Ushbu shartnomaning 7-modda 1-qismiga muvofiq "taraflarga qo'llaniladigan huquqni tanlab olishmagan taqdirda, oldi-sotdi shartnomasi sotuvchining shartnoma tuzish vaqtida tijorat korxonasi joylashgan davlat huquqi bilan tartibga solinadi" deb bilgilangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, chet el elementi ishtirokidagi bitimlar uchun qollaniladigan huquq tartibot quyidagi yo'llar orqali xal etilishi mumkin.

1. Shartnomada qo'llaniladidan huquq tartibotni tanlash (erk muhtoriyati);
2. Davlatning milliy kollizion normalari orqali;
3. Eng yaqin a'loqa qonunini tanlash orqali;
4. Xalqaro shartnomalar orqali.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy huquqiy internet portali: <https://huquqiportal.uz/dictionary/index?alphabet=%D2%B2&page=9&per-page=10>
2. **Xalqaro xususiy huquq:** Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 395 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi: 1190-modda: <https://lex.uz/docs/-180552#-199198>
4. **Xalqaro xususiy huquq:** Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 133 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik ba'zasi: